

ZAMONAVIY JAMIYATDA RADIKALIZMGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Samandarov Uchqunbek

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
+998 99 940 59 07

Qo'ysinova Fazilat Oripovna

Ilmiy rahbar: O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” kafedrasi dotsenti,
Siyosiy fanlar doktori (DCs)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20322593>

Annotatsiya: Ushbu maqolada radikalizm tushunchasi, uning paydo bo'lish sabablari va jamiyat hayotiga salbiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, radikal g'oyalarning yoshlar ongiga ta'siri, diniy ekstremizm va aqidaparastlikning xavfli jihatlari tahlil qilingan. Maqolada radikalizmga qarshi kurashishda ma'rifat, sog'lom diniy bilim, bag'rikenglik va milliy qadriyatlarining ahamiyati alohida ta'kidlangan. Bundan tashqari, davlat va jamiyat hamkorligi, ta'lim tizimi hamda ommaviy axborot vositalarining o'рни haqida fikr yuritilgan. Muallif radikalizmning oldini olishda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni turli yot g'oyalardan himoya qilish zarurligini asoslab bergan.

Kalit so'zlar: Radikalizm, ekstremizm, terrorizm, diniy aqidaparastlik, mafkuraviy tahdid, bag'rikenglik, ma'rifat, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, xavfsizlik, diniy savodxonlik, tinchlik va barqarorlik.

Аннотация: В данной статье раскрывается понятие радикализма, причины его возникновения и негативное влияние на жизнь общества. Также проанализировано воздействие радикальных идей на сознание молодежи, а также опасные стороны религиозного экстремизма и фанатизма. В статье особо подчеркивается значение просвещения, здоровых религиозных знаний, толерантности и национальных ценностей в борьбе против радикализма. Кроме того, рассматривается роль сотрудничества государства и общества, системы образования и средств массовой информации. Автор обосновывает необходимость воспитания молодежи в духе патриотизма и защиты ее от различных чуждых идей в целях предотвращения радикализма.

Ключевые слова: Радикализм, экстремизм, терроризм, религиозный фанатизм, идеологическая угроза, толерантность, просвещение, воспитание молодежи, национальные ценности, безопасность, религиозная грамотность, мир и стабильность.

Abstract: This article explains the concept of radicalism, the causes of its emergence, and its negative impact on society. It also analyzes the influence of radical ideas on the minds of young people, as well as the dangerous aspects of religious extremism and fanaticism. The article particularly emphasizes the importance of enlightenment, sound religious knowledge, tolerance, and national values in combating radicalism. In addition, it discusses the role of cooperation between the state and society, the education system, and the mass media. The author substantiates the necessity of educating young people in the spirit of patriotism and protecting them from various harmful and foreign ideas in order to prevent radicalism.

Keywords: Radicalism, extremism, terrorism, religious fanaticism, ideological threat, tolerance, enlightenment, youth education, national values, security, religious literacy, peace and stability.

Zamonaviy dunyoda radikalizm va ekstremizm global xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. O'zbekiston Respublikasi o'zining geosiyosiy joylashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari tufayli ushbu tahdidlarga duch kelmoqda. Radikalizmga qarshi kurash milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon ichki ishlar organlari, nodavlat tashkilotlar va xalqaro hamkorlarning birgalikdagi harakatlarini talab qiladi.

Radikalizm jamiyatning an'anaviy qadriyatlari va ijtimoiy normalariga zid bo'lgan ekstremal g'oyalar va harakatlar sifatida ta'riflanadi. U ko'pincha diniy, siyosiy yoki ijtimoiy asosga ega bo'lib, zo'ravonlik va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.[1] Karimov A. ta'kidlaydi: “Radikalizm ijtimoiy adolatsizlik, ta'lim darajasining pastligi va psixologik manipulyatsiya kabi omillar bilan oziqlanadi”. Markaziy Osiyo mintaqasida radikalizmning tarqalishi iqtisodiy qiyinchiliklar, yoshlar orasida ishsizlik va internet orqali propaganda bilan uzviy bog'liq. Xo'jayev M.ning fikricha, “yoshlarning psixologik beqarorligi va identifikatsiya qidirishi radikal guruhlar uchun asosiy nishon hisoblanadi”. O'zbekistonda radikalizmning xavflari jamiyatda nizolar, davlat institutlariga ishonchsizlik va ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazish sifatida namoyon bo'ladi.[2]

Ayni vaqtdagi globallashuv sharoitida hamda xalqaro yoki mintaqaviy miqyosda yuzaga kelayotgan nizoli vaziyat va mojarolarning mavjudligi holatida ekstremizm, radikalizm va terrorizm singari buzg'unchi mafkuralarga qarshi kurashish masalasi kun tartibidagi dolzarb mavzular sirasiga kirmoqda. Bunga ekstremistik va radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolayotgan insonlarning aksarini yoshlar tashkil qilayotgani va ularning son jihatdan ortib borayotganini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Bugungi kunda radikalizmni targ'ib qiluvchi ayrim guruh va tashkilotlar zamonaviy axborot vositalaridan foydalanib, din niqobi ostida yoshlarni zo'ravonlikka, milliy o'zlik va oilaviy qadriyatlarni yo'qotishga undashga harakat qilmoqda. Natijada jamiyatda murosasizlik, buzg'unchilik va radikal qarashlarning tarqalishi kuzatilmoqda. Bunday harakatlar ortida turli manfaatli kuchlarning o'z ta'sir doirasini kengaytirish maqsadlari mavjudligi ham namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, muqaddas dinimizda qoralangan, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan va an'analimizga to'g'ri kelmaydigan radikalizm kabi illatlardan yoshlarni asrash, ularning tarqalishiga xizmat qilayotgan har qanday faoliyatning oldini olish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada milliy va xalqaro tajribalardan samarali foydalanish ham katta ahamiyatga ega.[3]

Radikalizmga qarshi kurashning muvaffaqiyati uchun mavjud yondashuvlarning kamchiliklarini bartaraf etish zarur. Qosimov N.ning fikricha, “repressiv yondashuvning ustunligi ba'zida radikalizmni yanada kuchaytirishi mumkin”. Texnologik ta'minotning yetishmasligi kiberxavfsizlik sohasida jiddiy muammolar keltirib chiqaradi. To'rayev B. ta'kidlaydi: “Zamonaviy texnologiyalarni joriy etmasdan radikalizmga qarshi samarali kurashni tasavvur qilib bo'lmaydi”. Fuqarolar bilan muloqot madaniyatining pastligi profilaktik choralar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[4]

Bizni mintaqamizda davlat dindan ajratilgandir lekin bu ajralish dinning siyosatga ta'siri yo'qligidan iborat. Har qaysi zamon bo'lsin jamoat, millat, xalq bor ekan ularni diniy qarashi mavjud bo'ladi va bu qarash xoh xudo bir deb, xoh ko'p deb, xoh yoq deb e'tiqod qilsa ham baribir insonda diniy e'tiqodi bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki har bir davlat diniy bo'lmasada albatta din

bilan murosa qilishga majburligini keltirib chiqaradi. Dinlararo munosabatga kelsak bizning yurtimiz O‘zbekiston ko‘p millatli va dinli davlatlar sirasiga kiradi. Yurtimiz hududida 130 dan ortiq millat va elatlar iste‘qomat qilib kelishmoqda va diniy konfessiyalar soni esa 16 ta tashkil qilmoqda . Bunday ko‘p millatli davlat aholisi esa o‘zaro hamjihat va bir-birini e‘tiqodini hurmat qilib yashamog‘ini sharoitni o‘zi taqozo qilib turibdi. Agar davlat ularning orasidagi hamjihatlikni saqlamasa davlat parokandaligi avj oladi . Avvalo, aholining aksariyati qaysi dinga e‘tiqod qilsa va o‘z dinlarida chuqur ketib, mutassiblashib ketsalar , o‘zlaridan boshqa dinga mansub aholiga nisbatan tazyiqni kuchaytirishadi . Qolaversa, bir dinning o‘zida turli xil yo‘nalish va mazhablar ko‘payib ketadi . Bunday holat esa radikalizm , diniy muammolar qolaversa, siyosiy birdamlik yo‘qolishi, boshqa davlatlarni boshqa davlatni ichki ishlariga ochiqdan-ochiq aralashuviga yo‘l ochadi . Oqibatda mo‘tadil bo‘lgan toifalar jabr chekishadi. Radikalizmni oldini olishdagi eng samarali yechim yoshlarni diniy e‘tiqodini to‘g‘ri shakllanishiga e‘tiborni qaratish. Buzg‘unchi g‘oyalarni o‘ziga shior qilib olgan narsalarini amalga oshirishda asosiy quroli din, asosiy lashkari esa hali dinini yaxshi tanimaydigan yosh avloddir. Chunki, har bir inson fitratan dinga moyil bo‘ladi. Dinga bo‘lgan ehtiyojini esa turli xil oqimlar orqali to‘ydirib, ularni saflarini kengaytirib qo‘yishi bor gap. Radikalizmga qarshi kurashning yana bir samarali usuli oilalardagi muhitni soflashtirishdan iborat. Chunki oilaviy tarafdin ruhan tazyiqqa uchragan yosh avlod agressiv ruhdan kamol topadi va shunday ruhdagi guruhlarga mayl ko‘rsatadi.[5]

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning samaradorligi, shuningdek, hududlarda mahalliy jamoatchilik, mahalla va oilaning faol ishtiroki bilan ham bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda “Mahalla — ma‘naviyat maskani” tamoyili asosida yoshlar bilan ishlashda yangi yondashuvlar joriy etildi. Mahallalarda “Ma‘naviyat soatlari”, “Din va ma‘rifat”, “Radikalizmga qarshi immunitet” kabi targ‘ibot dasturlari tashkil etilib, ular orqali minglab yoshlar, ota-onalar va diniy faollar o‘rtasida ochiq muloqotlar o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ekstremistik g‘oyalarning oldini olish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. “Ma‘rifat nuri”, “Yoshlar va din”, “Sog‘lom tafakkur” kabi teleko‘rsatuvlar, shuningdek, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita va O‘zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan olib borilayotgan onlayn loyihalar diniy savodxonlikni oshirishda muhim o‘rin tutmoqda.[6]

Radikalizmga qarshi kurash bugungi global jarayonlarda eng muhim masalalardan biridir. Radikal g‘oyalar jamiyat barqarorligi, tinchlik va xavfsizlikka jiddiy xavf tug‘diradi. Uning paydo bo‘lishiga ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik va savodsizlik kabi omillar sabab bo‘lishi mumkin. Yoshlar ayniqsa turli yot g‘oyalarga tez ta‘sirlanishi mumkin. Shu bois ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish muhimdir. Ta‘lim va tarbiya tizimini kuchaytirish asosiy vazifalardan biridir. Mahalla va oilaning roli bu jarayonda juda katta ahamiyatga ega. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar yoshlarning ongini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari ham bu borada muhim vosita hisoblanadi. Diniy savodxonlikni oshirish radikal g‘oyalarning oldini olishda samarali usuldir. Bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat jamiyat tinchligining asosidir. Davlat va jamiyat hamkorligi bu yo‘nalishda zarurdir. Xalqaro tajribadan foydalanish ham foydali hisoblanadi. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng muhim yo‘llardan biridir.

References:

1. Ubaydullayev A. Radikalizmga qarshi kurash tushunchasi va mazmuni. “Development and innovations in science” jurnali, 2025. B. 24.
2. Xo‘jayev M. Yoshlar psixologiyasi va radikalizm. Psixologiya va Xavfsizlik Jurnal. –2019. –T. 3. –No 1. –S. 78-85.

3. <https://iiu.uz/oz/news/2220>
4. To‘rayev B. Kiberxavfsizlik muammolari. Markaziy Osiyo Xavfsizlik Tadqiqotlari Jurnal. –2022. – T. 4. –No 2. –S. 90-97.
5. <https://kukaldosh.uz/18/10/2023/11628>
6. Nematjonova D. Diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashda manaviy-marifiy yo‘nalis. International journal of scientific researchers, 2025. 204-205.